

SHOVOT KANALI HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li

*“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETIning Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi*

sobirmamarasulov6@gmail.com

Zarifboyev Xudoybergan Usmon o'g'li

*“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETIning Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida joylashgan Shovot kanalining suv o'tkazish qobiliyati, joylashgan o'rnini, kanalning to'yinadigan manbasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kanal, suv sarfi, suv o'tkazish qobiliyati, to'g'on inshoot, iqlim sharoiti.

Аннотация: В данной статье представлена информация о водопропускной способности канала Шавот в Хорезмской области, его расположении и источнике насыщения канала.

Ключевые слова: канал, водопотребление, водопропускная способность, конструкция плотины, климатические условия.

Abstract: This article provides information about the water carrying capacity of the Shavot canal in the Khorezm region, its location, and the source of the canal's saturation.

Key words: channel, water consumption, water carrying capacity, dam structure, climatic conditions.

Kirish: **Shovot kanali** — [Xorazm viloyati](#) va [Turkmanistonning Toshhovuz viloyatidagi](#) transchegaraviy magistral [kanal](#) hisoblanadi. Kanal dastlab [XVII asr](#) oxirida qurilgan. Kanal [Toshsoqa](#) kanali tizimiga kiradi. Toshsoqa kanalining 34 km da [qurilgan](#) uzeldan boshlanadi. Uzunligi 150 km hisoblanadi shundan ([O'zbekistonda](#) 78 km, Turkmanistonda 72 km). Suv o'tkazish imkoniyati 210 m³/s (Bayramsoqa, Mashinyorgan va Qoramazisoqa kanallaridan olingan suv bilan birga). Kanal Xorazm viloyatining [Xonqa](#), [Urganch](#), [Shovot tumanlarida](#) 37 ming ga va Toshhovuz viloyatida 75 ming ga yer [sug'oriladi](#).

Joylashuvi. Kanal 1940-yilgacha [Amudaryoning](#) chap [sohilida](#) o'zining bosh suv olgichiga ega bo'lgan. 1940 yilda uzunligi 14,6 km bo'lgan tutashtiruvchi kanal orqali Toshsoqa kanaliga ulangan. 1939— 1940 yillarda kanal rekonstruksiya qilingan. Shovot kanali 3 ta [to'g'on](#) inshoot, 1 oxirgi taqsimlagich uzelliga ega. Kanal [Urganch](#) shahrini ichidan oqib o'tadi. Shovot kanalining uzunligi 150 km, suv

oqimi 210 m³/s ni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 112 ming gektarni tashkil etadi. O'zbekistonga kanalning 78 km uzunlikdagi qismi va 37 ming gektar sug'oriladigan maydonlar, Turkmanistonga 72 km va 75 ming gektar yerlar tegishli. Asosan sharqiy-g'arbiy yo'nalishda shimolga bir oz qiyalik bilan oqadi. Amudaryoning bu bosh tarmoqli kanali XVII asrda qazilgan. Maydonlarni sug'orish uchun dastavval kanalda chig'irdan foydalanilgan.



1-Shovot kanalining umumiy ko'rinishi

Iqlimi: Tuman hududi viloyatning shimoli g'arbida, Shovot kanalining sohilida joylashgan. Relefi, asosan, tekislikdan iborat, shimolga tomon pasayib boradi. Iqlimi keskin kontinental. Yozi quruq, issiq, qishi sovuq. Yillik o'rtacha temperatura 10°, yanvarning o'rtacha temperaturasi -6°, eng past temperatura -32°, iyulning o'rtacha temperaturasi 27, eng yuqori temperatura 45-46°. Vegetatsiya davri 200-210 kun. Yiliga 87-89 mm yog'in tushadi. Tuman hududidan Shovot kanali oqib o'tadi. Dovdon, Yormish, udachi, Begyop kabi kanallar ham bor. Tuprog'i, asosan, sho'r tuproq. Qum tuproqlar ham uchraydi. Zax suvlar oqiziladigan G'ozovotdovdon kollektori tumanning Janubi g'arbidan, shovot kollektori shimoldan o'tadi. Yovvoyi o'simliklardan yulg'un, turang'il, oqbosh, yantoq, ajriq, yakan, qamish, chechak, sho'ra va boshqalar o'sadi.



2-rasm: Shovot kanalining suv olib keluvchi qismi

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerak, Shovot kanali ham O'rta Osiyo kanallaridagi eng ahamiyatli kanal hisoblanadi. O'rta Osiyodagi yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda xo'jalik kanallari qurishda temir-betondan yasalgan novlar (lotoklar) keng qo'llanilmoqda. Qadimdan sug'orib kelinayotgan maydonlardagi sug'orish tarmoqlari qayta qurilmoqda — ochiq xo'jalik kanallari suv o'tkazgich quvurlar bilan almashtirilmoqda. Kanallar avtomatik boshqarish sistemasi tarkibiga olinmoqda, bu esa suvni behuda sarflash va boshqa ekspluatatsisi nobudgarchilikka barham beradi, uni iste'molchilarga optimal taqsimlashni ta'minlaydi (O'rta Osiyoda birinchi suv xo'jaligini avtomatik boshqarish sistemasi Zarafshon daryosi havzasida 1978-yilda tashkil etilgan). Kanallardan foydalanishni sug'orish tarmog'i boshqarmalari va maxsus boshqarmalar amalga oshiradi. Boshqarmalarning asosiy vazifalari: suvdan foydalanish rejalariga muvofiq suvni yetkazib berish, hisobga olish va taqsimlash; kanalni, inshoot va aloqa tarmoqlarini yaxshi holatda saqlash, joriy va avariya ta'mirini o'tkazishdan iborat. Yillik joriy ishlarga (kanalni loyqa va oqiziq cho'kmalaridan tozalash, qisman buzilgan joylarni tuzatish ishlari va shahrik.) suv iste'molchi xo'jaliklar jalb qilinadi. Bunday hollarda sug'orish boshqarmalari texnika nazoratini amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo'jaqulov R., Yangiyev A., "Gidrotexnika inshootlari" 2-jild Qarshi "Intellekt" nashriyoti 2023 y
2. Majidov J, Fayziyev X, Husanxodjayev O', Raxmatov N "Gidrotexnika inshootlari" 1-jild "Ijod pres" Toshkent 2019-yil.

3. Bakiyev M.R., Majidov J., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Raxmatov M. “Gidrotexnika inshootlari” 2-jild. Toshkent: “Ta’lim nashriyoti”, “Iqtisod-moliya”, 2009 y
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Internet resurslari:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.ziyo.net